

FORS TILIDA IZOFA VA UNING ISHLATILISHI

Musurmonova Barchinoy Hasan qizi
Koson tuman 1- son kasb hunar maktabi
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada fors alifbosi, yozuvi, fors tilida izofa va uning ishlatilishi, izofaning imlosi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: fors, alifbo, yozuv, izofa, aniqlanmish, aniqlovchi, ot, sifat, ravish

Fors alifbosi (forscha: *فارسی الفبای*) — musulmonlar Fors davlatini bosib olgandan keyin VII asrdan boshlab Eron (G'arbiy Fors) va Afg'onistonda (Dari Fors) so'zlashuvchi fors tili uchun ishlatiladigan yozuv tizimi. Tojikistonda fors tilida so'zlashuvchilar (tojikcha-fors) Sovet davridan beri kirill alifbosining o'zgartirilgan versiyasi bo'lgan tojik alifbosidan foydalanishadi.

Fors yozuvi bevosita arab yozuvidan olingan va rivojlangan. Musulmonlar Forsni bosib olgandan va VII asrda Sosoniylar imperiyasi qulagandan so'ng, arab tili ikki asr davomida Forsda hukumat va din tiliga aylandi. Fors tilida yozish uchun pahlaviy yozuvlarini fors alifbosiga almashtirish IX asrda Buyuk Xurosonda Safforiylar sulolasi va Somoniylar sulolasi tomonidan amalga oshirilgan.[1][2][3].

Fors-arab yozuvining kengaytirilgan versiyalari ko'plab hind-eron tillarini, jumladan kurd, baluchi, pushtu, urdu, panjob, saraiki, sindhi va kashmir tillarini yozish uchun ishlatiladi.

Shu o'rinda izofaga to'xtalib o'tadigan bo'lsam, izofa (arab. qo'shish orttirish) — arab, fors va ko'p turkiy tillar grammatikasida aniqlanmish bilan aniqlovchi munosabati; urg'usiz bog'lovchi element orqali ifodalanadi (masalan, shahri azim, oynai jahon).[4].

Fors tilida aniqlanmish bilan aniqlovchi yoki qaralmish bilan qaratqich munosabatlari izofa deb ataluvchi urg'usiz e tovushi orqali ifodalanadi. Qizil gul-gule surx - گل سرخ, studentning kitobi – ketobe doneshju - کتاب دانشجو Fors tili izofiy birikmasida so'z tartibi o'zbek tiliga qarama-qarshidir. O'zbek tilida avval aniqlovchi so'ng aniqlanmish yoki avval qaratqich so'ng qaralmish kelsa fors tilida esa aksincha avval aniqlanmish so'ng aniqlovchi yoki avval qaralmish so'ng qaratqich keladi.

O'zbek tilida:

qizil gul, mening ukam
↓ ↓ ↓ ↓
aniqlovchi aniqlanmish qaratqich qaralmish

Fors tilida:

گل سرخ [gol-e sorx], برادر من [barādar-e man]
↓ ↓ ↓ ↓
aniqlovchi, aniqlanmish qaratqich qaralmish

[5].

Fors tili grammatikasida izofiy birikmadagi aniqlanmish - مضاف mo'zof va aniqlovchi مضاف اليه mo'zofun-eleyh deb nomlanadi. Katta stol – miz-e bo'zo'rg - ميز بزرگ

Aniqlovchi vazifasida ot, sifat, ravish yoki olmosh ishlatilishi mumkin.

دفتر خوب

[daftar-e xub] - Yaxshi daftar.

دفتر اکرم

[daftar-e Akram] - Akramning

daftari.

دفتر من

[daftar-e man] - Mening daftarim.

کتاب او

[ketab-e u] - Uning kitobi.

Izofaning imlosi

1. Undosh bilan tugagan so'zlardan so'ng izofa zir belgisi orqali yozilib e deb talaffuz etiladi. Odatda zir belgisi yozuvda tushib qoladi. Talaffuzda esa doimo saqlanadi.

soat - soate tello - تلا ساعت Tilla
Sa'diyning Gulistoni-go'listone Sa'diy - گلستان سعدی

2. e qisqa unlisi bilan tugagan soʻzlardan keyin izofa hamza belgisi orqali yozilib ye deb talaffuz etiladi. Navoiyning Xamsasi - Xamsa –ye Navoi نويسندہ بزرگ - boʻzoʻrg- حمسه نواى - Navisanda -ye

3. Choʻziq unlilar bilan tugagan soʻzlardan soʻng izofa ى yo harfi orqali yozilib ye deb talaffuz etiladi .

Masalan: gul hidi – boʻyi goʻl - بوى گل

Fakultet talabasi - doneshjuye doneshkade دانشجوئى دانشکده

Izofiy birikmaning gapda ishlatilishi

Izofiy birikmalar gapda aniqlovchisi bor boʻlgan ega vazifasida kelishi mumkin.

زن احمد مهندس است

[zan-e Ahmad mohandes ast]

Ahmadning xotini injenerdir.

برادر تو چکاره است؟

[baradar-e to cekar-e ast?]

Sening akang kim? (nima ish qiladi?).

Ot kesimli sodda gaplarda izofiy birikmalar kesimning ot qismi vazifasida ham ishlatilishi mumkin.

این مداد من است

[in medad-e man ast\ - Bu mening

qalamim (dir).

تاشکند پایتخت ازبکستان است

[Toshkand paytaxt-e

Oʻzbekistan ast\ - Toshkent - Oʻzbekistonning poytaxti.[5].

Xulosa oʻrnida shuni aytish kerakki, izofiy zanjir fors tilida aniqlanmish bir necha soʻz bilan aniqlanib kelishi mumkin. Izofiy zanjirda aniqlovchi soʻzlar bir-birini aniqlab izohlab va maʼnosini toʻldirib keladilar, hamda oʻzaro izofa koʻrsatkichi orqali bogʻlanadilar.

Aniqlanmish bilan aniqlovchi soʻzlar bir-birlari bilan izofa koʻrsatkichi orqali zanjir kabi bogʻlanib keladilar va bir butun izofiy birikmani hosil qiladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ira M. Lapidus. Islamic Societies to the Nineteenth Century: A Global History. Cambridge University Press, 2012 — 256– bet. ISBN 978-0-521-51441-5.
2. Ira M. Lapidus. A History of Islamic Societies. Cambridge University Press, 2002 — 127– bet. ISBN 978-0-521-77933-3.
3. Persian (Fārsī / فارسی), omniglot
4. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
5. A. Quronbekov, A. Vohidov, T. Ziyayeva K. 80 Fors tili: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik / A. Quronbekov, A. Vohidov, T. Ziyayeva; - T.: "Musiqqa", 2006 - 568 b.
6. M. Abdusamatov "Fors tili" Toshkent-2007.
7. Kuranbekov A. "Fors tili" T. 2007